

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olindi

Institut kengashining
№1 sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 23 avgust)

№

2014 yil 26 iyun



IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

Bilim sohalari:	100 000 – Gumanitar soha; 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
Ta'lim sohalari:	110 000 – Pedagogika; 230 000 – Iqtisod.
Ta'lim yo'nalishlari:	111000 – Kasb ta'limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit); 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha).


Toshkent – 2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:	B.Xakimov	– TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasini mudiri, i.f.n., prof.
	I.Choriyev	– TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasini katta o'qituvchisi
	N.Mavlanov	– TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasini katta o'qituvchisi
Taqrizchilar:	A.Ibroximov	– TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasini professori, i.f.n.
	M.Raximov	–TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasini dotsenti, i.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 20 maydagi 20-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri




B.Xakimov

Fanning ishchi o'quv dasturi Hisob va audit fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 12 iyundagi 11-sonli qarori).

Fakultet dekani



J.Kudaybergenov




A. Karimov

KIRISH

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanining asosiy maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida talabalarga xo'jalik sub`ekti faoliyatini turli axborot manbalaridan foydalangan holda o'rganish va baholash, sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etgan ichki hamda tashqi omillarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni miqdoran hisoblash, mavjud lekin foydalanilmagan imkoniyatlarni hamda ularning samaradorligini ko'rsatib berish, to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga manba bo'luvchi tavsiyalar ishlab chiqishni nazariy asoslarini o'rgatishdir.

Fanning vazifasi – iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida talabalarga xo'jalik sub`ekti faoliyatini tahlil etishning nazariy asoslarini, tahlil jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarni, tahlil ishlarini tashkil etish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartiblarini o'rgatishdan iboratdir.

Dasturdagi har bir mavzu yakunida tegishli pedogogik texnologiyalar keltirilgan va ularni qo'llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fan bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmua(O'UM)da bayon etilgan.

1.2. Fanni o'zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

«Iqtisodiy tahlil nazariyasi» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- keskin raqobat mavjud sharoitda xo'jalik sub`ektlarini to'g'ri boshqarishda tahlilning o'rni va roli, asosiy printsiplari, vazifalari, iqtisodiy fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o'rnini, iqtisodiy tahlil qilishning usullari, faoliyatda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari, tahlil turlari va ularning mazmuni, iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni kompleks tahlil qilish usullari, omillarni aniqlash va ularni hisoblash, mavjud imkoniyatlarni topish, informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil qilishni shakl va usullarini bilishi kerak;

- tahlil ob`ekti, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tahlil jarayonida kerak bo'ladigan manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlil natijasiga xulosa berish va yakun yasash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- xo'jalik sub`ektida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish, o'tkazish, natijalarni umumlashtirish va rasmiylashtirish, sub`ektning iqtisodiy faoliyati va uning yakuniga har tomonlama baho bera olish, tizimdagi barcha ko'rsatkichlarga sharh bera olish, sub`ekt iqtisodiy salohiyatini baholash, kamchiliklarni bartaraf eta oladigan hamda rivojlanishni ta'minlaydigan tavsiyalar ishlab chiqish, kompyuter texnologiyalari asosida tahlil jarayonlarini amalga oshirish kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.

1.3. Fanning o'quv rejasidagi fanlar bilan bog'liqligi

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani umumkasbiy fan hisoblanib, tegishli ta'lim yo'nalishlarida 5-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida belgilangan matematik va tabiiy (Oliy matematika, Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, Matematik programmalashtirish, Iqtisodiy geografiya va ekologiya), umumkasbiy (Iqtisodiyot nazariyasi, Mikroiqtisodiyot, Makroiqtisodiyot, Buxgalteriya hisobi nazariyasi, Menejment va marketing asoslari, Statistika, Moliya, Pul, kredit va banklar) va ixtisoslik (Moliyaviy hisob) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

1.4. Fanni o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

«Iqtisodiy tahlil nazariyasi» fanining *ma'ruza mashg'ulotlarida* ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.

- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash):

Ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

“Charxpalak” texnologiyasi:

Ushbu texnologiya talabalarni o'tilgan mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini bag'olashga qaratilgan.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali:

Korxonalar resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

Muammo texnologiyasi:

Talabalarga fanning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Pinbord texnikasi:

Muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Del fi texnikasi:

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi harakatlar algoritmiga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Case stayi.:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Shuningdek «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanining amaliyot mashg'ulotlarida komp yuter dasturlaridan (Finanalitik, Audit-Ekspert, 1S: Prof. Buxgalteriya, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, mul timediata`lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

111000 – Kasb ta’limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

T/r	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
A	1	2	3	4	5
1.	Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	6	2	2	2
2.	Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari	14	4	4	6
3.	Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar	14	4	4	6
4.	Iqtisodiy masalalarni hal qilishda iqtisodiy-matematik usullarning qo‘llanilishi	18	6	6	6
5.	Iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari va ularning axborot manbalari	12	4	4	4
6.	Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish	12	4	4	4
7.	Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash	14	4	4	6
8.	Moliya-xo‘jalik faoliyatini asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uslubi	18	6	6	6
9.	Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish	6	2	2	2
	Jami	114	36	36	42

**5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit(tarmoqlar va sohalar bo’yicha)”
bakalavriat ta’lim yo’nalishida “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan
o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar
hajmining taqsimoti**

T/r	Fan mavzularining nomi	Jami soat-lar	Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Mustaqil ta’lim
A	1	2	3	4	5
1.	Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	8	2	2	4
2.	Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari	16	4	4	8
3.	Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo’llaniladigan an’anaviy usullar	16	4	4	8
4.	Iqtisodiy masalalarni hal qilishda iqtisodiy-matematik usullarning qo’llanilishi	24	6	6	12
5.	Iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari va ularning axborot manbalari	16	4	4	8
6.	Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish	16	4	4	8
7.	Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash	16	4	4	8
8.	Moliya-xo’jalik faoliyatini asosiy ko’rsatkichlarini tahlil qilish uslubi	24	6	6	12
9.	Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish	8	2	2	4
	Jami	144	36	36	72

II. Asosiy qism

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari mavzulari

1-mavzu: Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiy tahlil fanini paydo bo’lish zarurati va uning sabablari. Fanning shakllanish elementlari. Iqtisodiy tahlil fanining rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy tahlil fanining O‘zbekistonda rivojlanishi. Fanning rivojlanish istiqbollari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujm, Insert, fikrlar bayon.*

[A1, A3, A8, A11, Q12, Q14, Q18]

2-mavzu: Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari

Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi ekanligi. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari. Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o‘rni. Iqtisodiy tahlilning asosiy printsiplari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujm, Slaid, Insert, Jadval.*

[A1, A2, A7, A9, Q14, Q17, Q18]

Adabiyotlar ro‘yxati: 1, 2, 7, 9, 14, 17, 20.

3-mavzu: Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar

Iqtisodiy tahlil fanining metodi, metodologiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflanishi. Oddiy-an’anaviy usullar: taqqoslash, o‘rtacha va nisbiy ko‘rsatkichlar, guruhlashtirish, balansli bog‘lanish, zanjirli bog‘lanish, mutloq va nisbiy farqlar, indeks usullari hamda ularning qo‘llanilishi. Iqtisodiy-matematik usullarning umumiy tavsifi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Fikrlar bayony, Bbabs, Iinsetr, Slaid, Jadval.*

[A3, A7, A9, A11, Q15, Q17, Q18]

4-mavzu: Iqtisodiy masalalarni hal qilishda iqtisodiy-matematik usullarning qo‘llanilishi

Xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy matematik modellashtirish. Stoxastik va determinantlashgan modellar. Stoxastik bog‘lanishdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishda korrelyatsion va regression tahlil usullarining qo‘llanilishi. Juftli va ko‘p sonli korrelyatsiya to‘g‘risida tushunchalar. Natijaviy ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblashda integral va logarifm usullaridan foydalanish. Iqtisodiy masalalarning maqbul yechimini aniqlashda chiziqli programmashtirish usulining qo‘llanilishi. Iqtisodiy tahlil qilishda o‘yin nazariyasi usulidan foydalanish.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, slaid, Ishbilarmonlik, Jadval.*

[A1, A3, A4, A11, Q12, Q16, Q18]

5-mavzu: Iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari va ularning axborot manbalari

Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to'g'risida tushuncha. Iqtisodiy tahlil turlar bo'yicha tasniflanishi va uning mezonlari. Iqtisodiy tahlilni mazmuniga, davriga, ob'ekti va sub'ektlariga, tarmoqlar bo'yicha, kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha, komp yuterlashtirish darajasi bo'yicha, ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha, o'rganilayotgan ob'ektni qamrab olish darajasiga ko'ra turlari va ularni tavsifi. Iqtisodiy tahlilning shakllari.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari. Tahlilning iqtisodiy axborot manbalariga qo'yiladigan talablar. Tahlilni manbalar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Insert, Jadval, Bahslashuv.*

[A3, A7, A8, A10, Q15, Q16, Q18]

6-mavzu: Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish. Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish va tashkil qilish bosqichlari. Tahlil jarayonida kerak bo'ladigan manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish. Tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. Tahlil natijalaridan xo'jalik sub'ektlari faoliyatida samarali foydalanish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Slayd, Insert, Fikrlar bayoni, Muloqot.*

[A2, A4, A8, A11, Q13, Q14, Q18]

7-mavzu: Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash

Kompleks iqtisodiy tahlilda tizimli yondashuv. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish asoslari, mazmuni va tamoyillari. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari va omillari tasnifi. Ekstensiv va intensiv o'sish munosabatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorligini kompleks baholash uslubi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muloqot, Aqliy hujum, Insert, Jadval.*

[A2, A4, A9, A11, Q12, Q14, Q18]

8-mavzu: Moliya-xo'jalik faoliyatini asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslubi

Ishlab chiqarishning tashkiliy, texnik va boshqa sharoitlari tahlili. Asosiy vositalar samaradorligini tahlil etishning uslubi. Moddiy resurslardan foydalanish tahlilining uslubi. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligini tahlil qilishning

uslubi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslubi. Mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlari tahlili uslubi. Moliyaviy natijalar va moliyaviy holat tahlilining uslubi. Korxonada moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va reyting baholash uslubi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, Bahs, Insert, Jadval.*

[A2, A4, A7, A11, Q12, Q17, Q18]

9-mavzu: Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy axborotlarni informatsion texnologiyalar asosida qayta ishlashni tashkil etish asoslari. Xo'jalik faoliyatini zamonaviy informatsion texnologiyalar asosida tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, blits-so'rov, Finanalitik, Audit-Ekspert, IS: Prof. Buxgalteriya, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust kompyuter dasturlari.*

[A2, A4, A8, A11, Q13, Q14, Q18]

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari

1-mavzu: Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

- Iqtisodiy tahlil fanini paydo bo'lish zarurati va uning sabablari;
- Fanning shakllanish elementlari;
- Iqtisodiy tahlil fanining rivojlanish bosqichlari;
- Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi;
- Fanning rivojlanish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujm, insert, fikrlar bayoni, Case study.*

[A1, A3, A8, A11, Q12, Q14, Q18]

2-mavzu: Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari

- Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni;
- Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi ekanligi;
- Iqtisodiy tahlil fanining predmeti;
- Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari;
- Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'rni;
- Iqtisodiy tahlilning asosiy printsiplari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujm, Slaid, Insert, Case study.*

[A1, A2, A7, A9, Q14, Q17, Q18]

3-mavzu: Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

- Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari;

- Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflanishi;
- Oddiy-an`anaviy usullar: taqqoslash, o`rtacha va nisbiy ko`rsatkichlar, guruhlashtirish, balansli bog`lanish, zanjirli bog`lanish, mutloq va nisbiy farqlar, indeks usullari hamda ularning qo`llanilishi;
- Iqtisodiy-matematik usullarning umumiy tavsifi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Fikrlar bayony, Bbabs, Insetr, Case study.*

[A3, A7, A9, A11, Q15, Q17, Q18]

4-mavzu: Iqtisodiy masalalarni hal qilishda iqtisodiy-matematik usullarning qo`llanilishi

- Xo`jalik faoliyatini iqtisodiy matematik modellashtirish;
- Stoxastik va determinantlashgan modellar;
- Stoxastik bog`lanishdagi iqtisodiy ko`rsatkichlarni o`rganishda korrelyatsion va regression tahlil usullarining qo`llanilishi;
- Natijaviy ko`rsatkich o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni hisoblashda integral va logarifm usullaridan foydalanish;
- Iqtisodiy masalalarning maqbul yechimini aniqlashda chiziqli programmashtirish usulining qo`llanilishi;
- Iqtisodiy tahlil qilishda o`yin nazariyasi usulidan foydalanish.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, slaid, Ishbilarmonlik, Case study.*

[A1, A3, A4, A11, Q12, Q16, Q18]

5-mavzu: Iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari va ularning axborot manbalari

- Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to`g`risida tushuncha;
 - Iqtisodiy tahlil turlar bo`yicha tasniflanishi va uning mezonlari;
 - Iqtisodiy tahlilni mazmuniga, davriga, ob`ekti va sub`ektlariga, tarmoqlar bo`yicha, kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo`yicha, komp yuterlashtirish darajasi bo`yicha, ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o`rganish bo`yicha, o`rganilayotgan ob`ektni qamrab olish darajasiga ko`ra turlari va ularni tavsifi;
 - Iqtisodiy tahlilning shakllari;
 - Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari;
 - Tahlilning iqtisodiy axborot manbalariga qo`yiladigan talablar.
- Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Insert, jadval, bahslashuv.*

[A3, A7, A8, A10, Q15, Q16, Q18]

6-mavzu: Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish

- Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish;
- Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish va tashkil qilish bosqichlari;

- Tahlil jarayonida kerak bo'ladigan manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish;
- Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Slayd, insert, jadval, muloqot, Case study.*

[A2, A4, A8, A11, Q13, Q14, Q18]

7-mavzu: Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash

- Kompleks iqtisodiy tahlilda tizimli yondashuv;
- Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish asoslari, mazmuni va tamoyillari;
- Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari va omillari tasnifi;
- Ekstensiv va intensiv o'sish munosabatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;
- Ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorligini kompleks baholash uslubi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muloqot, Aqliy hujum, Insert, Jadval, Case study.*

[A2, A4, A9, A11, Q12, Q14, Q18]

8-mavzu: Moliya-xo'jalik faoliyatini asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslubi

- Ishlab chiqarishning tashkiliy, texnik va boshqa sharoitlari tahlili;
- Asosiy vositalar samaradorligini tahlil etishning uslubi;
- Moddiy resurslardan foydalanish tahlilining uslubi;
- Mehnat resurslari va mehnat unumdorligini tahlil qilishning uslubi;
- Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslubi;
- Mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlari tahlili uslubi;
- Moliyaviy natijalar va moliyaviy holat tahlilining uslubi;
- Korxonada moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va reyting baholash uslubi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, Bahs, Insert, Jadval, Case study.*

[A2, A4, A7, A11, Q12, Q17, Q18]

9-mavzu: Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy axborotlarni informatsion texnologiyalar asosida qayta ishlashni tashkil etish asoslari;
- Xo'jalik faoliyatini zamonaviy informatsion texnologiyalar asosida tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, blits-so'rov, Finanalitik, Audit-Ekspert, IS: Prof. Buxgalteriya, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust kompyuter dasturlari, Case study.*

[A2, A4, A8, A11, Q13, Q14, Q18]

IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo'yicha 5140900 – “Kasb ta'limi” (Buxgalteriya hisobi va audit) va 5340900 – “Buxgalteriya hisobi va audit” bakalavriat yo'nalishlarida o'quv rejaga muvofiq mustaqil ta'lim soatlari rejalashtirilgan.

Mustaqil ta'lim talabani bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, iqtisodiy tahlil nazariyasini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabani o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi taqsimoti

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mazulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari	Hajmi (soatda)
Iqtisodiy tahlil – fan sifatida shakllanish tarixi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	2
Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari	Taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Iqtisodiy tahlilning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmuni	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	4
Tahlil natijalariga ta'sir etuvchi tashqi va ichki sabablar	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o'rnini	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Iqtisodiy tahlil metodining xususiyatlari	Loyiha ishi tayyorlash,	Oraliq baholashda	4

	taqdimot va slaydlar		
Iqtisodiy tahlil qilishning usullari	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	4
Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy hamda iqtisodiy-matematik usullari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Iqtisodiy tahlilda taqqoslash usulining qo'llanilishi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Ta'sir etuvchi omillarni hisoblashda integral usulidan foydalanish	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Iqtisodiy tahlilning korrelyatsion va regression usullari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	4
Natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda additiv modeldan foydalanishning zarurligi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	4
Omillar tizimini determi-nantlashgan modellarida aks ettirish	Keys stadi tayyorlash	Oraliq baholashda	4
Iqtisodiy jarayonlarning turli belgilari bo'yicha tahlilni turlarga ajratish	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	4
Tahlil uchun kerakli manbalar tizimi va uning turlari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruv va moliyaviy tahlil turlarining mohiyati	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Korxonalar faoliyatini o'rganishda tashqi tahlilning ahamiyati	Keys stadi tayyorlash	Mavzu yakunida	4
Tezkor (operativ) tahlilni tashkil etish va uning asosiy axborot manbalari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Funksional-qiymatli tahlil iqtisodiy tahlilning muhim shakli sifatida	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	4

Kompleks-iqtisodiy tahlilning tizimini yaratishning zaruriy shart-sharoiti	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	4
Kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishning ketma – ketligi va bajariladigan vazifalarning taqsimlanishi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu jarayonida	4
Iqtisodiy manbalarni turlari va ularni tashkil qilishni asosiy prinsiplari	Keys stadi tayyorlash	Mavzu yakunida	4
Iqtisodiyot sub'ektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish	Keys stadi tayyorlash	Mavzu yakunida	4
Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Informasion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish shakl va usullari	Keys stadi tayyorlash	Oraliq baholashda	4
Informasion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tahlil o'tkazishning metodik, texnik, dasturiy hamda axborot ta'minotining yaratilishi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu jarayonida	4

V. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, komp yuter dasturlari yordamida tahlil uchun kerakli manbalar nazariy jihatdan shakllantiriladi va undagi ma'lumotlar o'rganiladi. Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatlashtirish bo'yicha amaliy dastur paketlaridan, shuningdek, EXCEL jadval protsessoridan foydalaniladi.

VI. Fan bo'yicha baholash mezonlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"da ko'rsatilganidek, talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- Joriy nazorat (JN);
- Oraliq nazorat (ON);
- Yakuniy nazorat (YaN).

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo‘yicha talabanning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- Joriy nazorat - 35 ball;
- Oraliq nazorat – 35 ball;
- Yakuniy nazorat – 30 ball.

Joriy nazorat bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan har bir mavzu bo‘yicha talabanning adabiyotlardan olgan konspekti, bilimi, mustaqil ijodiy fikr-mulohazalari, amaliy jadval va topshiriqlarni echishi, mustaqil ishi natijalari va amaliy ko‘nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo‘limi yoki qismi bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar o‘tib bo‘lingandan so‘ng talabanning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabanning muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. Oraliq nazorat semestr davomida 2 davrada o‘tkaziladi. Talabalarning bilimi birinchi davrada fanning 1-4 mavzularini qamrab olgan qismi bo‘yicha 0-17 ball doirasida, ikkinchi davrada fanning 5-8 mavzularini qamrab olgan qismi 0-18 ball doirasida baholanadi. Oraliq nazoratda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ma‘ruzalar o‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki, yozma ish, test o‘tkazish usullari va talabanning mustaqil ishi nazarda tutilgan holda baholanadi.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to‘plangan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy(JN) va oraliq nazorat(ON)lar uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Yakuniy nazorat semestr yakunida o‘tkazilib, yakuniy nazoratda talabanning bilim, ko‘nikma va malakalari ishchi o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Yakuniy nazorat og‘zaki so‘rash, amaliy topshiriqlarni mustaqil echish, suhbat, yozma ish yoki test o‘tkazish usulida amalga oshiriladi.

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi, ya‘ni 39 ball saralash balli hisoblanib, ushbu balldan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy(JN) va oraliq nazorat(ON) turlari bo‘yicha 55 va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabanning semestrda joriy (JN) va oraliq(ON) nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 balldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtirina olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

4.1. Reyting nazorati jadvali*

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																			Attestatsiya	Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20				
JN	0-6			0-6			0-6			0-6			0-6			0-5				0-35	39	
ON	0-18									0-17										0-35		
Σ (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																				0-30	0-30	0
Jami	0-70																			0-30	0-100	55

*Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

4.2. JN va ON bo'yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari

Mazkur fan bo'yicha Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballarini quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ
	JN	ON	(JN+ON)
Iqtisodiy tahlil nazariyasi fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda Iqtisodiy tahlil nazariyasi bo'yicha masalalarni yecha oladi va ularga oid xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda Iqtisodiy tahlil nazariyasi bo'yicha masalalarni yecha oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqtirli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Iqtisodiy tahlil nazariyasi bo'yicha masalalarning mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20(19)-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqtirsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Iqtisodiy tahlil nazariyasi bo'yicha masalalarni yecha olmaydi va ular yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo‘yicha talabalarning bilimlarini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi

Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
1	2	3
86-100	“A’lo”	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish Firma va kompaniyalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikrlay olish Mamlakatimizdagi firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda xorijiy kompaniyalar faoliyati bilan solishtirib tahlil qilish Tahlil etilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish Tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish O‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish Firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning barcha usullarini birdek qo‘llay olish Tahlil etilgan jarayonga to‘g‘ri va xolisona baho berish Tahlil etilgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish O‘rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli xulosalar berish
71-85	“Yaxshi”	Tahlil etilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish Tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish O‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish Firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning barcha usullarini birdek qo‘llay olish Tahlil etilgan jarayonga to‘g‘ri va xolisona baho berish Tahlil etilgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish O‘rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli xulosalar berish
55-70	“Qoniqarli”	Tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish O‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish Tahlil etilgan jarayonga to‘g‘ri va xolisona baho berish Tahlil etilgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish O‘rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli xulosalar berish
0-54	“Qoniqarsiz”	Iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil etish bo‘yicha tasavvurga ega emaslik Tahlil jarayonlariga iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan usullarni qo‘llay olmaslik

Saralash bali 55 ballni tashkil etadi.

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan joriy nazoratda talabanning bilimini reyting tizimi asosida baholash

№	Ko‘rsatkichlar	Joriy nazoratdagi maksimal ball	Semestr bo‘yicha jamiga nisbatan, %	1 juftlik dars uchun maksimal ball
1	2	3	4	5
1.	Darsga qatnashganlik darajasi	3,5	10	0,2
2.	Adabiyotlardan konspekti, amaliy mashg‘ulot bo‘yicha berilgan vazifalarni bajariganligi	7,0	20	0,3
3.	Amaliy mashg‘ulot darslariga tayyorgarligi, so‘zga chiqishi, tahliliy jadvallarni bajara bilishi hamda ularga xulosalar berish saviyasi.	17,5	50	0,9
4.	Mustaqil ta‘lim bo‘yicha bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda iqtisodiy tahlil bo‘yicha berilgan qo‘shimcha topshiriqlarni bajarishi. Mavzular bo‘yicha multimedialar tayyorlashi, slaydlar, ko‘rgazmali qurollar va chizmalar tayyorlashdagi faoliyati, “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yaratishda qatnashganligi	7,0	20	0,3
	Jami	35	100	1,7

“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan oraliq nazoratda talabanning bilimini reyting tizimi asosida baholash

№	Ko‘rsatkichlar	Oraliq nazoratdagi maksimal ball		
		1-ON	2-ON	Jami
1	2	4	5	6
1.	Darsga qatnashganlik darajasi	2,0	2,0	4,0
2.	O‘tilgan mavzular bo‘yicha konspekti va ma‘ruzada o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasi	5,0	5,0	10,0
3.	Mustaqil ta‘lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda moliyaviy va boshqaruv tahlili bo‘yicha berilgan qo‘shimcha topshiriqlarni bajarishi	4,0	4,0	8,0
4.	Mavzular bo‘yicha multimedialar tayyorlashi, slaydlar, ko‘rgazmali qurollar va chizmalar tayyorlashdagi faoliyati, “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fani bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yaratishda qatnashganligi	2,0	3,0	5,0
5.	Ma‘ruza darslarida faolligi, fan bo‘yicha ish o‘yinlarini tashkil qilishdagi faolligi	4,0	4,0	8,0
	Jami	17	18	35

Yakuniy nazoratni “Yozma ish” asosida o‘tkazish MEZONI

Talabalar “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan yakuniy nazoratni og‘zaki so‘rov, test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Agar yakuniy nazorat “Yozma ish” usulida amalga oshirilsa, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variantda uchtadan savol hamda bittadan amaliy topshiriq bo‘lib, har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-8 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, moliyaviy va boshqaruv tahliliga oid o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lsa va uni yozma shaklda bayon yeta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 7-8 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to‘liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillar to‘liq va to‘g‘ri aniqlansa, omillar ta‘siriga ijodiy yondoshgan holda xulosa va fikrlar bildirilsa, 6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka yerishilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 6 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to‘liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillarning bir qismi to‘g‘ri aniqlansa, xulosa va fikr bildirilsa, 5 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 5 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to‘liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillarning bir qismi to‘g‘ri aniqlansa, xulosa va fikr bildirilsa, 4 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto‘g‘ri javob yozilsa yoki o‘quv adabiyotidan so‘zma-so‘z ko‘chirib yozilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-4 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa 0-3 ball bilan baholanadi.

Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazoratni “Test topshiriqlari” asosida o‘tkazish MEZONI

Talabalar “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Agar yakuniy nazorat “Test topshiriqlari” asosida amalga oshirilsa, sinov ko‘p variantli usulda kompyuter sinflarida o‘tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig‘i bo‘lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Har bir test topshirig‘iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 26-30 tasiga to‘g‘ri javob belgilagan talaba 26-30 ball oralig‘ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 22-25 tasiga to‘g‘ri javob belgilagan talaba 22-25 ball oralig‘ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 17-21 tasiga to‘g‘ri javob belgilagan talaba 17-21 ball oralig‘ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 16 va undan kamiga to‘g‘ri javob belgilagan talaba 0-16 ball oralig‘ida baholanadi.

Yakuniy nazoratni “Yozma ish” hamda “Test topshiriqlari” asosida o‘tkazish MEZONI

Talabalar “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanidan yakuniy nazoratni “Yozma ish” hamda “Test topshiriqlari” usulida topshiradilar va ularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. Yakuniy nazoratni “Yozma ish” usulida topshirilganda talabalar bilimi 0-6 ball (YaN balining 20 foizi) oralig‘ida baholanadi. Yakuniy nazoratni 0-24 ball (YaN balining 80 foizi) oralig‘ida baholanadigan qismi kompyuter sinflarida test topshiriqlari asosida o‘tkaziladi. Talabalar berilgan 30 ta test topshiriqlari bo‘yicha har bir to‘g‘ri javob uchun 0,8 ballga ega bo‘ladilar.

“Yozma ish” ko‘p variantli usulda o‘tkazilib, har bir variantda ikkitadan savol va bittadan amaliy topshiriq beriladi hamda har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-2 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq ham 0-2 ball oralig‘ida baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, moliyaviy va boshqaruv tahliliga oid o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 1,7-2 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to‘liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar to‘liq va to‘g‘ri aniqlansa, omillar ta’siriga ijodiy yondoshgan holda xulosa va fikrlar bildirilsa, 1,7-2 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 1,4-1,6 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to'liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning bir qismi to'g'ri aniqlansa, xulosa va fikr bildirilsa, 1,4-1,6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri javob yozilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri qo'llanilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 1,1-1,3 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar to'liq bajarilsa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning bir qismi to'g'ri aniqlansa, xulosa va fikr bildirilsa, 1,1-1,3 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-1 ball bilan baholanadi.

Amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa 0-1 ball bilan baholanadi.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazoratda “Og'zaki so'rov” asosida baholash MEZONI

Talabalar “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan yakuniy nazoratni og'zaki so'rov, test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Agar yakuniy nazorat “Og'zaki so'rov” usulida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda uchtadan savol bo'lib, talabaga savollarga tayyorlanish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Har bir savolga talaba tomonidan berilgan javoblar 0-10 ball oralig'ida baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri ochib berilsa, tahlil nazariyasiga oid o'z mustaqil fikriga ega bo'lsa va uni to'liq bayon yeta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka yerishilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 9 - 10 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri javob berilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri ochib berilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka yerishilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 7 – 8 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri javob berilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri ochib berilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka yerishilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob berilmasa, noto'g'ri javob berilsa, iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri ochib berilmasa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-5 ball bilan baholanadi.

Og'zaki so'rov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun berilgan javoblarga qo'yilgan

o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Foydalaniladigan o'quv adabiyotlari ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". "Xalq so'zi" gazetasi, 20 yanvar 2012 yil.

2. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". Xalq so'zi" gazetasi, 19 yanvar 2013 yil.

3. Бердникова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. –М.: ИНФРА –М 2010-215 с.

4. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibroximov A.T. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013. -600 b.

5. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. /Учебник – М.: "Финансы и статистика", 2006. – 456 с.

6. Калинина А.П. и др. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. /Учебник – М.: "Высшее образование", 2005. – 382 ст.

7. Шагиясов Т. Теория экономического анализа. /Учебное пособие – Т.: ТМИ, 2005. – 285 ст.

8. Шагиясов Т., Сагдиллаева З., Файзиев Б. Финансовый и управленческий анализ. /Учебник –Т.: Иқтисод-Молия, 2008. – 352 ст.

9. Shog'iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –Т.: "Fan va texnologiya" 2012. – 278 b.

10. Hakimov B., Choriyev I., Urmanbekova I. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2012. – 120 b.

11. Hakimov B. va boshq. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2012. – 240 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

12. Баканов М.И., Мельник М.В., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. Учебник. – М.: "Финансы и статистика", 2007. – 536 с.

13. Бариленко В.И., Плотникова Л.К., Кузнецов С.И., Скачкова Р.В., Плотникова В. Анализ хозяйственной деятельности.–М.: Издательство "Омега – Л", 2009. – 414с.: табл.

14. Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х., Бошқарув таҳлили. /Ўқув қўлланма – Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси, 2005. – 320 бет

15. Шеремет А.Д. "Комплексный анализ хозяйственной деятельности". /Учебное пособие. – М.: РИОР , 2007. – 255 с.

16. Вахрушина М.А. Управленческий анализ./Учебно-практический курс-М.: "Омега-Л", 2006. -250 с.

17. Соколова Н.А., Каверина О.Д. Управленческий анализ./Учебник –М.: "Бухгалтерский учет", 2008. – 345 с.

18. Internet saytlari:

- www.mf.uz
- www.nalog.uz
- www.stat.uz
- www.norma.uz
- www.edu.uz
- www.tsue.uz
- www.reportcom.uz
- www.ziyonet.uz
- www.gaap.ru
- www.buhgalt.ru
- www.audit-it.ru
- www.books/bankir.ru
- www.finanaliz.kiev.ua
- www.preiskurant.ru
- www.finstat.ru